

ERTAKDAGI “TASODIF”: BADIY SHARTLILIK VA EPIK QONUNIYAT

Gulsanam Mashrapova,
FarDU tayanch doktoranti

Annotatsiya: maqolada ertak sujetida faol qo‘llanuvchi tasodifiy uchrashuvlar, yetishmovchilik hamda epik qo‘rg‘onning safar motivini yuzaga keltiruvchi muhim omil sanalishi misollar asosida dalillangan.

Kalit so‘zlar: ertak, motiv, safar, tasodif, epik qonuniyat, epic qo‘rg‘on.

Epik qahramon hayotining burilish nuqtasi haqida gap ketar ekan, qahramonning faol harakatga o‘tishi; tinch, bir ma’romda kechayotgan hayotini tashlab, kimnidir yoki nimanidir izlab ketishi, boshiga mushkulliklar tushishi “tasodif” lar tufayli ham yuz berishini ta’kidlash joiz. Ya’ni tasodif - qahramon safari uchun sabab bo‘lgan muhim omillardan biri.¹ Shu o‘rinda aytish mumkinki, ertakdagi “tasodiflar” shunchaki tasodif emas. Bu aksiomaning mazmuni shuki, taqdirimiz buyuk Yaratganning izmida bo‘lganidek, ertak voqeligining har bir nuqtasi xalq ijodkorligining g‘oyaviy- badiiy rejasidir. Epik sujetning har bir komponenti ulkan mexanizmning kichik bir detali hisoblanadi. Demak, qahramon taqdirini o‘zgartiradigan “tasodif” badiiy shartlilik qonuniyatiga amal qiladi. Qahramon xazinani tomosha qilish uchun kiradi: “tasodifan” go‘zal malikaning rasmini ko‘rib oshiq bo‘lib qoladi va uni izlab safarga otlanadi. Yoki ovga chiqqan shahzoda “tasodifan” bir chiroyli kiyikni ko‘rib qoladi. To‘g‘ri, ovda kiyikni ko‘rish tabiiy holat, lekin *“to‘rtala oyog‘idagi tuyog‘i sadafdan, har qaysi oyog‘idan ikkitadan sakkizta oltin xalqasi bor; ikki shohiga oltin, kumush, marvarid, gavhardan naqshlar o‘yilgan; junlari oq, qora, ko‘k, qizil, sariq, pushti, noparmon, qo‘yingki, 32 xil rangda tovlanadi”* [“Mohistara” ertagi, 6:6] gan kiyik har kuni uchrayvermaydi. Qahramonga oshiq bo‘lgan pari qiz transfiguratsiya orqali, yana uni qiziqtiradigan vosita bilan o‘ziga rom qiladi. Yigit uning orqasidan quvib, o‘zga olamga tushib qoladi va sarguzashtlari boshlanadi.

M.Baxtin fikricha, asosan “yo‘l” tasodifiy uchrashuvlar joyi [Baxtin M.M, 1:241] ... uchrashuv-ayriliq-qidirish-topish singari asosiy motivlar uyg‘unligi faqat bir narsada – insonni o‘zini anglashi haqidagi sujetni ifodalashda namoyon bo‘ladi [Baxtin M.M,1:70]. Rus olimining yunon romani haqida bildirgan mulohazalari

¹ Ertakda tasodiflar sujetning turli qismlarida, turaf maqsadlar uchun qo‘llanuvchi vosita ekanligini yodda tutgan holda, biz ushbu o‘rinda mavzumizga mos ravishda faqat safar motivini yuzaga keltirish funksiyasiga ega tasodiflar haqida so‘z yuritishga harakat qildik.

folklor matni uchun begona emas. Chunki muallifning o‘zi ta’kidlaganidek, o‘rganilayotgan tadqiqot obyekti (yunon romani – G.M) “xuddi shu joyda qadim folklor ildizlariga, bugunga qadar mavjud qator folklor turlari, ayniqsa, ertaklar tarkibida yashab kelayotgan xalqning asil odam haqidagi orzulari bilan chambarchas bog‘lanadi” [Baxtin M.M,1:69]. Darhaqiqat, asil odam haqidagi orzular ertak sujetida har bir detalni mana shu maqsad sari bo‘ysundirishga olib keladi. Baxtin aytgan “yo‘ldagi tasodifiy uchrashuvlar” tashkillanadigan makonlardan biri bu epik qo‘rg‘onidir. Qahramonning yo‘lida “bexosdan” uchragan qo‘rg‘on, saroy, bog‘, uy kabilar uning safar yo‘nalishini o‘zgartira oladigan, taqdiriga daxl qiladigan, muammolar duchor qiluvchi va shu bilan birga, ularga yechim topuvchi epik makondir. Sehrli ertaklarda qahramonning yo‘lida tasodifan hozir bo‘ladigan tilsimli qo‘rg‘on keyingi sarguzashtlariga yo‘l ochadigan epik makon sifatida poetik funktsiya bajaradi. Sir-sinoatga to‘la makon tasviri uchun ertakchilar bisotlaridagi eng chiroyli so‘zlarni tanlab ishlatganlar. Ularning tashqi ko‘rinishi qanchalik go‘zal va maftunkor bo‘lsa, qadam bosgan inson uchun xavf-xatarga to‘la. “Epik qo‘rg‘onlar o‘zining real, tarixiy manbalariga ega. Bu manbalar qadimgi mifologik ritual (inisiatsiya) marosimi va ana shu marosimlar o‘tadigan joylar bilan aloqador. Mifologik marosim o‘tadigan joy genetik jihatdan epik qo‘rg‘on bilan tipologik o‘xshashlikka ega. Biroq har ikkisinin vazifasi bir-biridan farq qiladi. Biri g‘oyaviy, ikkinchisi ta’limiy vazifani ado etadi”[O‘zbek folklorining epik janrlari, 7:78].

Ertakda epik qo‘rg‘onlar tasviri ikki xil ko‘rinishga ega: sirli, vahimali, qo‘rqinchli yoki juda ziynatlangan, chiroyli, xushmanzara, insonni o‘ziga tortuvchi. “Yurib-yurib bir joyga borib qolgan” qahramon bir kechaga joy yoki ichish uchun bir kosa suv so‘rab qo‘rg‘onga kiradi va u yerdagi kutilmagan voqealar, tasodifiy uchrashuvlar tufayli yangi sarguzashtlarni boshdan kechiradi. “Qahramon safari paytida uning oldida paydo bo‘lgan tasodifiy bunday makonlarning estetik vazifasi bitta: u yerda qahramon kim bilandir uchrashadi va shu orqali voqealar oqimi jonlanadi”[Мирзаева С, 2:79]. Epik makon va u yerdagi tasodifiy uchrashuv tufayli sujet tuguni yuzaga keladi va voqealar rivoji yechimga tomon yo‘naladi. Qahramonning odatiy, kundalik hayotidan boshqa olamga “ko‘chirish”, sujetning qiziqarliligini ta’minlaydigan muammo va konfliktni yuzaga keltirish, epik safarning sababini asoslash uchun xalq fantaziyasidagi sirli makonlar ertak tarkibidan o‘rin oladi va epik qonuniyatga aylanadi.

Tasodifiy uchrashuvlarning eng ko‘p uchraydigan turi bu – qahramonga ko‘mak beruvchi yoki sehrli buyum hadya etuvchi homiy bilan uchrashuvdir. Yo‘ldagi bunday uchrashuvlar yagona maqsad sari ketayotgan qahramon safarida

hal qiluvchi voqelikdir. Chunki ayni uchrashuvdan so‘ng qahramonning raqibga nisbatan ustunlik, afzallik darajasi o‘sadi va aytish mumkinki, uning g‘alabasi avvaldan ta‘minlanadi. Shuningdek, ayrim ertaklarda boshqa namunalarda uchramaydigan tasodifiy uchrashuv vaziyatlari ham mavjud. Masalan, “Javlonbek” ertagida shahzoda otasining podshoh bo‘lish haqidagi taklifiga “dunyo kezishi kerakligi” bilan rad javobini beradi. Yo‘lda ketayotib, tog‘ ustida bir qizning haykalini ko‘rib, sevib qoladi va uni izlab ketadi [Наманган эртаклари, 3:49].

Ertak sujetining bunday tipida safarning voqelanishi ustma-ust, zanjirsimon yo‘nalishga ega. Bu tasavvurimizda zinapoyani yoki rus matrushkalarini eslatadi. Qahramon safarga chiqishdan avvalgi maqsadi, unga sabab bo‘lgan voqelik birinchi pog‘onada qolib ketadi. Ikkinchi pog‘onada unga yangi sabab-maqsadlar ro‘baro‘ bo‘ladi. Shu tariqa ikkinchi, uchinchi va hokazo bosqichlardan o‘tib, niyatiga yetadi. Ortga qaytishda esa har bir bosqichda qo‘lga kiritilgan “mukofotlar” bilan “taqdirlanadi”.

V.Propp o‘zining “Ertak morfologiyasi” kitobida qahramon safariga sabab bo‘luvchi omillardan biri sifatida “yetishmovchilik” ekanini ta‘kidlaydi va ulardan bir qanchasiga misol keltiradi. Masalan: 1) biror insonning; 2) sehrli vositalarning; 3) sehrli kuchning yetishmasligi; 4) o‘ziga xos shakl: Koshcheyning o‘limi bilan bog‘liq sehrli tuxum yo‘qligi; 5) ratsionalizatsiya qilingan shakllar: pul, tirikchilik uchun boshqa narsalar yetarli emasligi va boshqalar [Пропп В.Я, 5:35].

Olimning ushbu tasnifiga “erkinlik va e‘tirof yetishmovchiligi”ni qo‘shimcha qilish mumkin. O‘gaylik tipidagi sujetlar uchun erkinlik; baxt va taqdirini topish, musofirchilik uchun safar qilish haqida ertaklar uchun “e‘tirof” yetishmovchiligi muhim. V.Propp qayd etishicha, yetishmovchilik haqida qahramonga kimdir tomonidan xabar beriladi. Buni “tashqi signal” deb atash mumkin. “Erkinlik” uchun izlanishda esa safar signali qahramonning ichki dunyosidan kelib chiqadi. N.Xorvard kuchli impuls yoki to‘satdan ishtiyoq tarzda yuzaga keladigan, qahramon safari uchun ichki signal vazifasini o‘taydigan ko‘plab holatlar mavjudligini aytadi [Nansy Xorvard, 4:6]. Misol uchun o‘gay onaning uzluksiz zug‘umi yoki tuhmati yoki bo‘lmasa, qahramonning birdan dunyo kezish, o‘z baxtini topish haqidagi fikrga kelishi va doimiy yashash joyini tark etishi o‘zbek xalq ertaklari sujeti uchun ham xarakterli hisoblanadi. Qahramon shu kungacha bo‘lgan hayotini o‘zgartirishga, uydan ketishga o‘zi qaror qiladi. Chunki u o‘ziga erkinlik va e‘tirof yetishmayotganini his qiladi. Safar uning shaxsiy rivojlanish va baxtli hayot yo‘li uchun pastdan yuqoriga qarab harakatlanadigan zinapoya vazifasini bajaradi. Aytish kerakki, “qahramonga signal tashqaridan yoki ichki dunyosidan keladimi, baribir, bu har doim mavjud vaziyat eskirgan va foydasiz bo‘lib qolganligini, qahramon

o‘zgarishlarga tayyor ekanini, garchi xohlamasa yoki bunga qodir bo‘lmasa ham, eski, tanish hayotni ortda qoldirib, yangisiga o‘tishga hozirligini bildiradi” [Nansy Xorvard, 4:6].

Umuman olganda, safar motivi sujet tarkibida yetishmovchilik, yo‘l va tasodifiy uchrashuvlar bilan mustahkam aloqada bo‘lib, ertakning bir butun kompozitsiyasini yaratishda faol ishtirok etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Бахтин М.М. Романда замон ва хронотоп шакллари. Рус тилидан Узоқ Жўрақулов таржимаси – Тошкент.: Akadempnashr, 2015. – Б 241.
2. Мирзаева С. Ўзбек халқ романик дostonлари поетикаси. –Т.: “Фан”, 2004. –Б 79.
3. Наманган эртаклари/ Ёзиб олиб, нашрга тайёрловчилар: Тожибой Ғозибоев ва б/ – Т.: “Шарқ” нашриёти, 1998. – Б. 46.
4. Nansy Xorvard. The Quist motif of literature. Supplemental handout of English// Fantasy Fiction, 2010. – P. 6.
5. Пропп В.Я Морфология сказки. – Москва: Лабиринт, 2001. – С. 35.
6. Сув қизи. Фантастик эртаklar / Нашрга тайёрловчилар: М.Афзалов, З.Хусаинова, Н.Сабуrow. – Тошкент: Бадиий адабиёт, 1966. – Б. 6.
7. Ўзбек фольклорининг эпик жанрлари// Ўзбек халқ ижоди бўйича тадқиқотлар. – Т.: “Фан”, 1981. – Б. 78.
8. Mashrapova G. O‘zbek xalq ertaklarida asosiy personajlar: safarga yo‘llovchi / Folilogiya ta‘limi masalalari: muammo va uning innavatsion yechimlari. Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari to‘plami. – Farg‘ona, 2022. – B. 336-338.